

## Respublika miqyosidagi onlayn konferensiya

Joriy yilning 15 mayida Jizzax politexnika institutida tashkil etilgan "Xotin-qizlarning fan, madaniyat va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish sohasidagi yutuqlari» mavzusida Respublika miqyosida onlayn konferensiyasiga qatnashdim.



Ushbu konferensiyada Ayollar sportining ommaviyligini oshirish hamda chet tillarni o'rgatishda oilaning va ta'lim muassasalarining roli, inson jamiyat, shaxs oilaning o'zaro munosabatlari , unda uchraydigan gender tengligi xamda imkoniyatlar kafolatlari, xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish masalalari, kitobxonlik madaniyatini oshirish, hamda kitobxonlikni keng targ'ibot qilish to'g'risida ma'ruzalar tinglandi. Ushbu konferensiyada institutimizning bir qator ayol professor-o'qituvchilar faol qatnashdilar.



**Institut xotin - qizlar Kengashi raisi Zulfiya Hafizova axboroti**

**TIQXMMI matbuot xizmati**